# XALQ DEPUTATLARI BO‘KA TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2022 - yil 19 - avgust VI-58-61-10-137-K/22 Bo‘ka tuman hokimligi

**Bo’ka tumani mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig’i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag’ ajratish to’g’risida**

O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi O’RQ-742-son Qonuniga asosan, tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig’i bilan bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo’shimcha manbadan foydalanish yuzasidan Xalq deputatlari Bo’ka tumani Kengashi,

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Tuman hokimligi, moliya bo’limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman mahalliy byudjetining qo’shimcha manbalari hisobidan mablag’ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Bo’ka tumani Kengashining "Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish,investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha" doimiy komissiyasining 2022-yil 23-iyuldagi Bo’ka tumani mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig’i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag’ ajratish taklifi to’g’risidagi yig’ilish bayonnomasi ma’qullansin.

3. Tuman mahalliy byudjetining qo’shimcha manbalari Xalq deputatlari tuman Kengashining qarorlari asosida yo’naltirilishi belgilab qo’yilsin.

4. Mahalliy byudjetining ortig’i bilan bajarilgan qismi hisobidan ilovaning 1-3-4-bandlarda ko'rsatilgan yo'nalishlar uchun mablag’ ajratish tasdiqlansin.

4.1. ilovaning 2-bandida ko'rsatilgan kredit mablag’larining foiz mablag’larini to’lab berish uchun ko'rsatilgan 328 mln so'm mablag' nega 8 foizl o'rniga kredit foizi 14 foiz to'lanayotganligi masalasiga aniqlik kiritilganiga qadar to'lovni amalga oshirish rad etilsin.

5. Bo’ka tuman mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining ortig’i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag’ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

6. Mablag’ ajratilgan tashkilotlar Bo’ka tumani mahalliy byudjetining qo’shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag’larning saflanishi va natijadorligi to’g’risidagi hisoblarini Xalq deputatalari tuman Kengashga taqdim etib borishi vazifasi yuklatilsin.

7. Favqulodda vaziyatlarda va shunga o’xshash kechiktirib bo’lmaydigan choralar ko’rilishi talab etiladigan hollarda Xalq deputatalari tuman Kengashga pul mablag’i ajratilgandan so’ng hisobot berish sharti bilan tuman hokimining (farmoyishi) qarori asosida yo’naltirilishi belgilab qo’yilsin. Bunda, favqulodda vaziyatlarda va shunga o’xshash kechiktirib bo’lmaydigan tadbirlarga ajratiladigan mablag’lar moliya yili mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qo’shimcha, ko’zda tutilmagan xarajatlarni o’z vaqtida hamda uzluksiz moliyalashtirilishini ta’minlashga ajratiladigan qonun xujjatlari bilan byudjetdan ajratilishi belgilangan xarajatlar hisoblansin.

8. Tuman Kengashining qarori qabul qilingandan so’ng hokimlikning mablag’ ajratish to’g’risidagi qarorlari (farmoyishlari)ga byudjet intizomini ta’minlash maqsadida ortiqcha qarzdorliklarga yo’l qo’ymaslik uchun qo’shimcha manbalar hisobidan mablag’lar ajratish yuzasidan taklif va xulosalar moliya bo’limi tomonidan tuman hokimiga kiritilsin.

9. Tuman mahalliy byudjetining qo’shimcha manbalari tuman byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo’naltirilishiga yo’l qo’yilmasin.

10. Qo’shimcha manbalar hisobidan mablag’lar ajratilgan tashkilotlar mablag’lardan foydalanish yakuni bilan moliya bo’limiga ulardan foydalanilishi bo’yicha hisobotlar taqdim etsinlar.
-Bunda ajratilgan mablag’larning foydalanilmasdan qolgan qismini kamaytirish yuzasidan mablag’ oluvchilar tomonidan tegishli murojaatlar kiritilsin va o’z navbatida, moliya bo’limi tegishli farmoyishlarga o’zgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimining qaror (farmoyish)i loyihasini tayyorlasin.

11. Tuman mahalliy byudjetining qo’shimcha manbalaridan mablag’ oluvchilarning rahbar va mas’ul xodimlar ajratilgan mablag’lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag’larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar hisoblansinlar.

12. Mazkur qaror ijrosi hokimining birinchi o’rinbosari Yu.Inoqov zimmasiga yuklatilsin.

13. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha” doimiy komissiyasi raisi D.Po’latov zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiya raisi** **U.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2022 yil 19 avgustdagi
VI-58-61-10-137-K/22-son qaroriga
1-ilova

# Bo’ka tumani mahalliy byudjetining 2022 yil 2-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini ortig’i bilan bajarilgan qismi hisobidan mablag’ ajratish

# YO’NALIShLARI

*ming.so’m*

*hisobida*

| T/r | Ko’rsatkichlar | Yo’naltiriladigan | |
|---|---|---|---|
| | | eng kam qismi% (summa) | eng ko’p qismi % (summa) |
| | *Shundan:* | | |
| 1 | O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-5072-son va 2018 yil 22 avgustdagi “Byudjet ma’lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3917-son Qarorlariga asosan “Fuqarolar tashabbus jamg’armasiga” mablag’ yo’naltirish. | | 263 282,0 |
| 2 | O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari ishtirokida 2021 yil 10 may kuni “Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish” bo’yicha belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda mavjud muammolarni hal etish yuzasidan o’tkazilgan 24-sonli yig’ilish bayonining 21-bandiga asosan tumanda ham kommunal sohani yaxshilash,obodonlashtirish,ko’p qavatli uylarning tomlarini ta’mirlash va bunyodkorlik ishlarini tashkil qilish uchun jalb qilingan kredit mablag’larining foiz mablag’larini to’lab berish uchun. | | 328 000,0 |
| 3 | Yoshlar daftari jamg’armasiga 15% miqdoridagi mablag’larni yo’naltirish | | 130 769,0 |
| 4 | 2022-yil 20-iyun kuni tumandagi Toshloq MFY xududidan o’tuvchi RB-2 xo’jaliklararo kanaldan kuchli yomg’ir yog’ishi natijasida tabbiy ofat (suv toshqini) yuzaga kelib ushbu xududda istiqomad qilayotgan fuqarolarning turar va noturar binolariga turli darajada zarar yetgan. Toshloq MFYda tabbiy ofat (suv toshqini) natijasida to’planib qolgan suvni chiqarib tashlash va boshqa ishlarni tashkillashtirish uchun jalb etilgan avtotransport vositalariga yoqilg’i hamda yoqilg’i moylash mahsulotlarini sotib olish xarajatlari uchun. | | 149 743,0 |
| | **Jami:** | | **874 794** |